



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



Case-study o'quv mashg'ulotlarida ko'rib chiqiladigan, dalill-u materiallar asosida yaratiladigan o'quv vaziyatidir. Bunda o'quvchilar turli vaziyatlar bilan tanishadilar, mushohada qiladilar, jamoa bilan ishlashni, vaziyatlarni tahlil qilishni, qarorlar qabul qilishni, mustaqil fikrlashni, o'z-o'zlarini tanqid qilishni, ijodiy fikr yuritishni o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Abduqodirov va boshqalar. "Case-study" uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2012. – 55-bet.
2. Kambarova S. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 16-bet.
3. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lif muktabalarining 11-sinfi uchun darslik. To'xliyev B. va b. 1-nashr. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
4. Case study as literature. Mikaela Öberg EKP 14 Halmstad University ETN, Halmstad Sweden mikani14@student.hh.se.

DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?

Raxmatova Karima Erkinovna

ToshDO'TAUning 1-kurs magistranti

raxmatovakarima@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola adabiy ta'lilda o'qitilayotgan dramatik asarlarning o'quvchilarga estetik zavq uyg'otish bilan birga, ma'naviy boylik va ijtimoiy masalalarni o'rganishi uchun erta yoshdan o'quvchilarga tanishtirish kerakligi haqida. Bundan tashqari, adabiy turning o'qitishga :r muammolar va yechimlarga tavsiyalar yoritildi. Xalqaro tajribada, jumladan rus va turk dasturlariga e'tibor qaratilib, tahlilga tortildi va takliflar berildi.

Kalit so'zlar: dramatik yaratiq, ma'naviyatni shakllantirish, o'quv dasturi, darslik, jahon tajribasi.

Аннотация. В данной статье подробно обсуждается необходимость знакомить учащихся с драматическими произведениями, изучаемыми в рамках литературного образования, с раннего возраста, чтобы они могли узнать о духовном богатстве и социальных проблемах, а также привить учащимся эстетическое удовольствие. Кроме того, были освещены проблемы и рекомендации по их решению, связанные с преподаванием литературного жанра. Былоделено внимание международному опыту, в том числе российским и турецким программам, и высказаны предложения.

Ключевые слова: драматическое творчество, духовное формирование, учебная программа, учебник, мировой опыт.

Abstract. This article discusses in detail the need to introduce students to dramatic works taught in literary education from an early age so that they can not only enjoy them aesthetically, but also learn about spiritual wealth and social issues. In addition, it highlights the problems and recommendations for solutions related to the teaching of the literary genre. International experience, including Russian and Turkish programs, is analyzed and suggestions are made.

Keywords: dramatic creation, spiritual formation, curriculum, textbook, world experience.



Dramatik asarlar o'quvchilarni insoniy his-tuyg'ularni chuqurroq anglashga, shaxsiyati va xarakteri orqali jamiyatni tushunishga o'rgatadi. Ammo dramatik asarlarni o'quv jarayonida o'rgatishda ko'plab muammolar yuzaga keladi. Dramatik janrga oid asarlar adabiyot darslarida o'rganilishi murakkab bo'lgan asarlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, boshqa janrlarga nisbatan kam sonlidir. Metodist olim Q.Yo'ldoshev dramatik asarlarni erta yoshdan o'quvchilarga tanishtirish, ularning ma'naviyatini shakllantirishga yordam berishini ta'kidlab o'tgan.²²¹ Dramatik asarlarni tahlil qilishda alohida yondashuv talab etiladi. Chunki, bir vaqtning o'zida ham so'z, ham teatr san'atlarining uyg'unlashuvi natijasi bo'l mish dramani o'qish, idrok etish hamda tahlillash qo'shimcha intelektual-hissiy zo'riqish taqozo qiladi. Qahramonlarning tuyg'ulari, insoniy sifatlari haqida muallifning xarakteristikasi bo'l magan sharoitda asar personajlarining holatlari, ruhiyati va shaxsiyati borasida to'xtamga kelish va muayyan xulosalar chiqarish uchun aqliy kuchlanish zarur bo'ladi. Shu sababli, o'quvchilarda dramatik asarlarga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshirish o'qituvchining mahoratiga bog'liqdir.

Avvalo, hozirda amaldagi adabiyot fanidan "Milliy o'quv dasturi" va maktab darsliklarida mavjud dramatik asarlarni tahlil qilindi. Dramatik asarlar, asosan, 8-sinfdan o'rganilishi rejalashtirilgan.

Maktab darsligi	Dramatik asarlar nomi
8-sinf	"Jaloliddin Manguberdi" tragediyasi (M.Shayxzoda). ²²²
9-sinf	"Sohibqiron" dramasi (A.Oripov), "Temir xotin" komediya (Sh. Boshbekov), "Hamlet" fojiasi (Shekspir). ²²³
10-sinf	"Abulfayzzon" fojiasi (Fitrat); ²²⁴
11-sinf	"Tanho qayiq" dramasi (ErkinA'zam). ²²⁵

1-rasm. Maktab darsliklarida berilgan dramatik asarlar.

Adabiy ta'lilda dramatik asarlarni o'qitish bilan bog'liq quyidagi muammolarga duch kelindi:

1.Til va uslubdagi murakkabliklar. Ko'plab dramatik asarlar murakkab uslub va til birliklarida yozilgan. Masalan, Fitratning "Abulfayzzon" dramasi yoki Shekspirning dramatic yaratiqlari zamonaviy o'quvchilarga begona tuyulishi mumkin;

²²¹Йўлдошев Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлиласослари. – Тошкент.: Камалак, 2016. – Б.193.

²²²Olim S. Va boshq. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinflari uchun darslik. – Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. – B. 134.

²²³Yo'ldoshev Q. va boshq. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinflari uchun darslik. – Toshkent.: O'zbekiston , 2019. – B. 368.

²²⁴Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinflari uchun darslik. – Toshkent.: Respublika ta'lim markazi, 2022. – B. 230.

²²⁵To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 2-qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinflari uchun darslik-majmua. – Toshkent.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – B. 122.



2.Qahramonlarning psixologiyasini anglashdagi muammolar. Dramatik asarlarda qahramonlarning hissiy va ruhiy holatlari chuqur tasvirlanadi. O'quvchilar bu murakkab kechinmalarni tushunishda qiynaladi. Masalan, "Hamlet"da bosh qahramonning hissiyot girdobida qolishi yoki "Temir xotin"da qahramonlarning ziddiyatlari talqin qilishni talab qiladi;

3. Sahnaviy ijroning yetishmasligi. Dramatik asarlar mo'ljallangan teatr muhitida jonlanadi. Ammo dars jarayonida sahnaviy ijob kam qo'llanilishi yoki umuman bo'lmasligi o'quvchilarning asarni tushunishiga to'sqinlik qiladi;

4. Yondashuvdagi cheklovlar. Ko'plab o'qituvchilar hali ham an'anaviy usullarga tayanib, faqat matnni o'qish va muhokama qilish bilan cheklanadilar. Bu esa, dramatic asarlarning estetik jihatlarini to'liq namoyon qilishga imkon bermaydi;

5. O'quvchilarning motivatsiyasi pastligi. Zamonaviy o'quvchilarning dramatic asarlarga nisbatan qiziqishi kamaymoqda, chunki ular bu asarlarni o'zlarini uchun dolzarb deb hisoblamaydilar.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi metodik yondashuvlar taklif etiladi:

1. Til va uslub murakkabliklarini bartaraf etish. Asar matnidagi murakkab so'z va iboralarning zamonaviy izohlarini taqdim etish va muhim qismlarini zamonaviy o'quvchilar tushunadigan tilde qayta talqin qilish. O'quvchilarga muallifning uslubini oddiyroq misollar orqali tushuntirish. Masalan, Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramatik asari,²²⁶ asosan, tarixiy bo'lganligi uchun bevosita tarix bilan bog'lab o'tish, tushunarsiz so'zlar lug'atini tuzish va badiiy matnda qanday ma'no anglatishini tushuntirishdan iborat. Quyidagi jadval orqali keltirish mumkin:

Mal'un	• La'nat, la'natlangan;
Ufunat	• Badbo'y hid;
Munaqqash	• Naqshlangan, naqshli, nashqdor.

2-rasm. Yangi so'zlarini tushuntirish.

2. Sahnaviy yondashuv orqali qahramonlarning psixologiyasini anglash. Darsni teatr ko'rinishida tashkil etish, o'quvchilarni aktyorlar kabi asar qismlarini ijro etishga jalb qilish. Shu orqali o'zlarini qahramon o'rniga qo'yib ko'rishi, ularning hissiy holatini tahlil qilishlari mumkin. Jumladan, Erkin A'zamning "Tango qayig'"ida²²⁷ Orol bobo, farzandlari, shogirdlarining o'y-xayol va kechinmalarini aks etgan sahnalarini o'quvchilar tomonidan "Rolli o'yin"

²²⁶ Olim S. vaboshq. Adabiyot. Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 8-sinflari uchun darslik. – Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. – B. 134.

²²⁷ To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 2-qism. Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 11-sinflari uchun darslik. – Toshkent.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – B. 122 .



metodi orqali ijro etishi, ularga badiiy yaratiqning yaxshiroq anglashi va ta'sir etishi uchun bevosita ko'mak beradi;

3. Innovatsion usullardan foydalanish. Interfaol texnologiyalar, masalan, virtual teatr yoki dramatik asarlarning audio kitoblarini dars jarayoniga joriy etish ham yaxshi samara beradi. Keyinchalik, o'quvchilarni dramatik asarlarning zamonaviy talqinlarini yaratishga undash, qisqa videoroliklar (treyler) yoki kichik sahna ko'rinishlari tashkil qilish mumkin. Bu orqali multimedia vositalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishga ko'mak beradi. Xususan, Sharof Boshbekovning "Temir xotin" komediyasi²²⁸ asosida o'quvchilar asarning spektakli yoki kinofilmni tomosha qilib, shundan so'ng, dramaning asosiy voqealarini aks etgan lavhalarni jamlab, qisqa videorolik (treyler) tayyorlashi mumkin;

4. Motivatsiyani oshirish. Asarlarni o'quvchilarning kundalik hayotiga bog'lash orqali dolzarbligini ko'rsatish va ularning ijtimoiy va axloqiy ahamiyatini tushuntirish yordamida qiziqtirish lozim. Masalan, Usmon Azimning "Bir qadam yo'l" dramasida befarq farzandlarning otasiga munosabati, jamiyatning ahvoli qanday ekanligi haqida muhim ko'rsatmalar, jumladan, farzandlik burchining vaqtida ado etilmay qolishi, oqibatida ota armon bilan vafot etishi kabi voqealarni "FSMU" metodi orqali ochib berilsa, asarni o'qishga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi.

Axborot-kommunitsiyalar jadal bilan rivojlanayotgan davrda, xalqaro tajribalar bilan tanishish, ularning afzallikkleri va kamchiliklarni tahlil qilish orqali ham adabiyot o'qitish metodikasi bilan bog'liq muammolarga yechim topish mumkin. Rossiya va Turkiya o'quv dasturlari va maktab darsliklari tahlili orqali quyidagilar ma'lum bo'ldi:

Rossiyada adabiyot o'qitish metodikasi maktab darsliklari va o'quv dasturida ham 8-sinfdan dramatik asarlar tavsiya qilingan. Jahon va milliy namoyondalarining dramatik asarlaridan har bir sinf uchun ikki yoki uchta berilgan.²²⁹ Milliy dasturlari va darsliklaridan tamomila keskin farqlar kuzatilmaydi. Turkiya esa, tamomila boshqa yo'sinda aks etadi. Jumladan, ularda ona tili va adabiyot fanlari birlashtirilib, "Türk dili ve edebiyati" nomi ostida dastur va darslik taqdim etilgan. Dasturda adabiyotga alohida urg'u berilib, adabiy tur va janrlarning nomlaridan boblar nomlangan. Ularga mos matnlar tanlanib, nutqiy va lingvistik ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Jumladan, dramatik asarlarni o'rganish yuzasidan maxsus "Tiyatro" ("Teatr") bobiajratilgan (8-sinfdan 12-sinfgacha). Buni quyidagi 9-sinf dasturida ko'rishimiz mumkin:²³⁰

²²⁸Yo'ldoshev Q va boshq. Adabiyot. Umumiyo'rtata'limmaksiyalarining 9-sinflari uchun darslik. – Toshkent.: O'zbekiston, 2019. – B. 257.

²²⁹Федеральная рабочая программа основного общего образования. Литература. –М.: 2024. –С.10-13.

²³⁰Orta öğretim türk dili ve edebiyati dersi. Öğretim programı (hazırlık, 9,10,11 ve 12 sınıflar).– Türkiye.: 2018. – S. 35.



6. ÜNİTE: TİYATRO

Ünite Süresi: 5 HAFTA		
OKUMA	YAZMA	SÖZLÜ İLETİŞİM
<p>1. Cumhuriyet Dönemi'nden üç tiyatro (trajedi, komedi, dram) örneği</p> <ul style="list-style-type: none"> Tiyatro ve tiyatro türleri hakkında genel bilgi verilir. Temel tiyatro terimleri (suflör, replik, tirat, jest, mimik, aksesuar, makyaj vb.) açıklanır. Dünya edebiyatından bir tiyatro örneğine yer verilir ve bu örneğin incelenen metinlerle karşılaştırılması sağlanır. 	<ul style="list-style-type: none"> Öğrenciler gruplara ayrılır ve her grubun 3-5 dakikada oynanabilecek kısa bir oyun yazması sağlanır. 	<ul style="list-style-type: none"> Öğrencilerin yazdıkları oyunları sınıfın imkânları dâhilinde sergilemeleri ve değerlendirmeleri sağlanır.
Dil Bilgisi Konuları: <ul style="list-style-type: none"> Metindeki zarfları bulur ve bunların metindeki işlevlerini belirler. Metinler üzerinden imla ve noktalama çalışmaları yapılır. 		

3-rasm. 9-sinf turk tili va adabiyoti o'quv dasturida dramatik asarlarning berilishiga xos xususiyatlar

Yuqori jadvalda 6-bob dramatik asarlarga bag'ishlangan va uning davomiyligi 5 haftaga mo'ljallangan. Turkiya tajribasida adabiyot o'qitishga :r 3 ta muhim ko'nikmalar: o'qish, yozish, og'zaki nutq zarur deb hisoblangan. Masalan: o'qish ko'nikmasida mustaqillik davriga oid uchta teatr (fojia, komediya, drama) namunasi o'rganiladi. Shuningdek, teatr va uning turlari haqida umumiy tushuncha beriladi. Asosiy teatr terminlari (suflyor, replik, tiraj, jest, mimika, aksessuar, grim va boshqalar) tushuntiriladi. Jahan adabiyotidan teatr asari namunasi beriladi va ushbu namuna bilan milliy asar taqqoslanadi. Yozishda esa o'quvchilar guruhlarga bo'linadi va har bir guruh 3-5 daqiqalik sahnalashtirish mumkin bo'lgan qisqa pyesa yozadi. Og'zaki nutqda o'quvchilarning yozgan sahna asarlari sinf sharoitida ijro etiladi va baholanadi.

O'zbekistonda dramatik asarlarni o'rganish bo'yicha o'quv dasturiga bir qancha o'zgartirishlar kiritish zarur. Jumladan, dramatik yaratiqlarni o'quvchilarga 5-sinfdan boshlab tavsiya etish maqsadga muvofiqdir. Albatta, ularning yosh xususiyatlarini, mavzu :rasini inobatga olgan holda. Masalan, 5-7-sinflar uchun bolalar yozuvchi va shoiri Miraziz A'zamning asarlarini olish mumkin. Uning "Saylanma"sida²³¹ maktab sahnasi uchun 9 ta asarlar mavjud: "Buxoriy darsi", "Qardoshlik yo'llarida (Yassaviy)", "Ulug'bek va safdoshlari" kabilar o'rinni olgan. 8-sinflar uchun Usmon Azimning "Bir qadam yo'l", 9-sinf uchun "Tong otgan taraflarda" ("Alpomish" dostoni bilan uyg'un holatda o'qitish), 10-sinf uchun Qo'chqor Norqobilning "Zamindan uzoq ketma", 11-sinf uchun Hamzaning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari"ni tavsiya etish mumkin. Shuningdek, xalqaro tajribada, adabiyot dasturlarida "Adabiyot va kino" bobini ham mavjud, adabiyot o'quv dasturlariga ham ushbu bobni kiritish va dramatik asarlarning kino, spektakl variantini badiiy matn bilan qiyoslab o'rgatish kerak.

Xulosa qilganda, dramatik asarlar murakkab va qiziqarli. Bunday asarlarni o'rganish nafaqat adabiy bilimlarni chuqurlashtiradi. Balki, o'quvchilarning

²³¹A'zam M. Saylanma. – Toshkent: Cho'lpon, 2005. – B. 377–518.



ijodiy fikrlash, o'zini ifoda etish va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – 464 б.
2. Федеральная рабочая программа основного общего образования. Литература. – М.: 2024. –128 с.
3. Adabiyot fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Loyiha. – Toshkent: 2021. – 212 b.
4. A'zam M. Saylanma. – Toshkent: Cho'lpon, 2005. – 560 b.
5. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Umumiyo'rta ta'lim maktablarining 10-sinflari uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 312 b.
6. Olim S.va boshq. Adabiyot. Umumiyo'rta ta'lim maktablarining 8-sinflari uchundarslik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. – 352 b.
7. Orta ögretim türk dili ve edebiyati dersi. Ögretim programi (hazirlilik, 9,10,11 ve 12. siniflar).– Türkiye: 2018. – 64 s.
8. To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 2-qism. Umumiyo'rta ta'lim maktablarining 11-sinflari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 200 b.
9. Yo'ldoshev Q. Va boshq. Adabiyot. Umumiyo'rta ta'lim maktablarining 9-sinflari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 368 b.
10. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Shafoatnurfayz, 2023. – 336 b.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/KZLK4470

TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH

Saydullayeva Shoira Kaxramon qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining
1-bosqich tayanch doktoranti
saydullayevashoira3@gmail.com
ORCID: 0009-0000-5105-2319*

Annotatsiya. Psixologiya va sotsiologiya fanlarida o'rganiladigan nazariyalarni badiiy adabiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilish mavjud muammolar mohiyatini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi. Shunday nazariyalardan biri konspirologiyadir. Mazkur maqolada konspirologiya nazariyasi haqida batafsil ma'lumot berilgan bo'lib, uning badiiy talqini misollar orqali yoritilgan. Konspirologik syujetlarning, ayniqsa, tarixiy romanlarda asosiy o'rinni egallashi ma'lum. Maqolada bu asarlar tahlil qilinib, uning ta'lim va tarbiyadagi ahamiyati ochib berilgan. Tarixiy romanlar o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni aks ettirib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlashiga yordam beradi. Tadqiqotda Odil Yoqubov, Pirimkul Qodirov va A.S.Pushkin asarlarining konspirologik tahlili hamda uning inson dunyoqarashini rivojlantirishdagi o'mni haqida mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, konspiratsiyalarning hozirgi davrda mavjud ko'rinishlari borasidagi xorijlik olimlarning fikrlari ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: konspirologiya, fitna nazariyasi, tarix, sotsiologiya, ijtimoiy, tarixiy roman, tanqidiy fikrlash, inson obrazzi.



<i>Botirova Nigora Nurulla qizi. DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI</i>	881
<i>Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi. ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</i>	887
<i>Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi. ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)</i>	893
<i>Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi. 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR</i>	898
<i>Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi. 5-7-SİNFLAR ADABIYOT DARSLARIDA SHE'RİY ASARLARNING BADIY TİL XUSUSİYATLARİNİ O'RGATİSH METODİKASI: MİRTEMİR VA ANVAR OBİDJON SHE'RLARI MİSOLIDA</i>	903
<i>Nomozova Dilobar Suyun qizi. FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSİON YONDASHUVLAR</i>	908
<i>Qodirova Dilnoza Alisher qizi. ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SİFATIDA</i>	916
<i>Qosimova Munisa Botirjon qizi. KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i>	920
<i>Raxmatova Karima Erkinovna. DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?</i>	925
<i>Saydullayeva Shoira Kaxramon qizi. TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH</i>	930
<i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi. ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI</i>	935
<i>Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH</i>	942
<i>Xolova Sabina Jo'raqulovna. LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKİSTON VA TURKIYA TA'LIM TİZİMİ MISOLIDA)</i>	950
<i>Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna. ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>	953
<i>Xujanova Nilufar Do'smat qizi. GLOBALLASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI</i>	958
<i>Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna. ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI</i>	964
<i>Norqulov Nurzod Saidmurodovich. MUMTOZ NASRIY ASAR TAHLILI YUZASIDAN ZAMONAVIY QARASHLAR</i>	968
<i>Abdullayeva Dildora Shokir qizi. ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARINING BADIY KUCHI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i>	972

